NAMANGAN VILOYATI POP TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 15-fevral | 86-6-84-Q/25 | Pop tuman hokimligi

Davlat tasarrufidagi turar joylarni hususiylashtirishga ruxsat berish to'g'risida

"Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 16-moddasi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-25-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 1 martdagi "O'zbekiston Respublikasida davlat uy-joy fondini hususiylashtirishni davom ettirish to'g'risida"gi 114-son qaroriga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Pop tuman Paxtakor MFYda joylashgan ko'p qavatli 10 uyning 15 xonadonida yashovchi fuqaro Kamalova Ettiborxon Jamolovnaning uy-joylarini hususiylashtirish masalasida amaliy yordam so'rab qilgan murojaati va Namangan viloyati hokimligining davlat uy-joy fondini boshqarish departamenti davlat korxonasining tegishli xulosalarini asos uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Pop tuman Paxtakor MFYda joylashgan ko'p qavatli 10 uyning 15 xonadoniga tegishli bo'lgan tuman hokimining muqaddam imzolangan qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb xisoblansin.

3. Pop tuman Paxtakor MFYda joylashgan ko'p qavatli 10 uyning 15 xonadonida yashovchi fuqaro Kamalova Ettibor Jamolovna nomiga ko'p yillar davomida ushbu honadonda yashab kelayotganini inobatga olib, 3 055 531 (uch million ellik besh ming besh yuzi o'ttiz bir ming) so'mga baholangan (2 xonali, yashash maydoni 33.10 m2, umumiy maydoni 50.20 m2) xonadon sotilib o'ziga shahsiy mulk qilib berilsin.

4. Tuman xokimligi devonxonasi (N.Abdukarimov) qarorning nusxasini va tegishli xujjatlarni "Davlat aktivlarini boshqarish agentligi"ning Namangan hududiy boshqarmasiga besh kun muddat ichida davlat dalolatnomalarini rasmiylashtirish uchun yuborsin.

5. Kadastrlar palatasining Pop tuman filiali (F.Axunov) mazkur qaror asosida Pop tuman Paxtakor MFYda joylashgan ko'p qavatli 10 uyning 15 xonadoniga kadastr xujjatlarini shakllantirsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari R.Onarboev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Sultanov**